

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
O'ZBEK VA INGLIZ POETIK ORNITONIMIYASI
SHAKLLANISHIDA MADANIY-MA'RIFIY OMILLAR O'RNI.**

Shomurotova Bibixon O'ktamovna.

TTA Urganch filiali Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

bibixon86@mail.ru

Insoniyat tamaddunining rivoji folklor an'analarining katta qismi badiiy yozma adabiyotiga, yozma badiiy adabiyotning bir qismi folklorga o'tib, bir-birining rivoji uchun imkoni yaratib berdi. Shuning uchun ilk uyg'onish davridan boshlab yozma adabiyot tahlili ayni paytda davr og'zaki poetik ijodi haqida ham muayyan tasavvur hosil qilishga asos bo'ladi. Alisher Navoiy asarlarining bu qadar xalqona va folklor an'alariga boyligi davr muhitida turkiy og'zaki ijod o'rni katta bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu holat boshqa zamin va muhit uchun ham umumiy bo'lishi tabiiy. Albatta, Uilyam Shekspir ijodida folklor unsurlarining o'rni davr muhitida ingliz folklori kamoli bilan izohlanadi.

Ingliz tilida ushbu xalq adabiyotining eng yorqin mumtoz vakillaridan biri sifatida U. Shekspir asarlaridagi qushlar haqida maxsus "Shekspirning qushlar olami" kitobi yaratilgan. Asar muallifi jurnalist va ornitolog Jeyms Edmund Harting (1841–1928). Bu kitob "Burgut va yirik yirtqich qushlar", "Lochinlar va qirg'iylar", "Boyo'g'li va u bilan aloqador narsalar", "Qargalar va ularning qarindoshlari", "Qo'shiqchi qushlar", "Uy parrandalari", "Patli o'yin", "Suv qushlari va dengiz qushlari", "Oldingi boblarga kiritilmagan turli qushlar" kabi boblardan iborat bo'lib, Shekspir asarlari va ularning tarjimonlari indeksi hamda rasmlar ro'yxati bilan yakunlanadi.

"Men sizning qarg'angiz kabi uning ustidan egilib, unga balo haqida bashorat qilardim!" ("Troilus va Cressida") Bundan tashqari, qarg'a taqdirni bashorat qiladi va Shekspirda u yashirin bilim egasidir.

Shekspir ornitologiyasi xarakterlarni, asosan psixotiplarni tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, tovus xudbinlikning yorqin timsolidir ("Troilus va Cressida", "Genrix VI"), baliqchi qush ahmoqlikni anglatadi ("Genrix V", "Otello", "Afina Timoni", "O'n ikkinchi kecha"). Falstaffning istehzosi aniq, u, albatta, kaptarning qo'rqqoq tabiatini biladi: "Siz g'azablangan kaptar kabi jasur bo'lasiz" ("Genrix IV"). Shekspir pesalarining biridagi Byanka "yovuz lochin" deb nomlanadi, bu kitob muallifi lochinlarning hukmron davrlar doirasidagi vazifasi tadqini bilan bog'liq.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Uilyam Shekspir asarlari ornimonimiyasi turli xil qushlarga boy bo'lib, ulardan ko'pincha asar mavzusi, qahramonlar his-tuyg'ulari va xarakter-xususiyatlarini yetkazish uchun ramziy ma'noda foydalanilgan. Jumladan, *qarg'a* (*Corvus corax*). Qarg'alar ko'pincha Shekspir asarlarida yomonlik yoki o'limning ramziy ifodasi. Masalan, "Makbet" asarida Ledi Makbet shunday deydi: "*The raven himself is hoarse/ That croaks the fatal entrance of Duncan / Under my battlements*" – "Qarg'aning o'zi xirillagan Dunkanning halokatga yo'liqishi haqida qag'illamoqda Mening janglarim ostida" (1-parda, 5-ko'rinish). Asarda qarg'aning qag'illashi Dunkanning o'ldirilishi haqida oldindan ogohlantiradi.

Shu o'rinda o'zbek milliy tafakkurida qarg'aning bu jihati uning ijobiy semalariga nisbatan bo'rtiq ekanini qayd etish lozim. Bugun mashhur bo'lishiga qaramay, asl mazmun-mohiyati anglashilmay qo'ygan "Qarag'alar uchsa qaraylik, Marg'ilonning yo'liga" qo'shig'ida ham qarg'a mardikorlikka olingan yigitlar o'limi darakchisi sifatida namoyon bo'ladi. Qarg'a shu bilan birga to'porilik, qo'pollik ma'nolarini ham anglatganini Alisher Navoiy asarlari tilida o'qib bo'lmas xat, xunuk yozuv Alisher Navoiyda *kulog'po* (qarg'aning oyog'i) deb ta'riflangani bejiz emas.

Turkiy xaqlar qarg'aning barcha ijobiy jihatlarini e'tiborga olib, o'zlariga tomem qilib olishgan. Keyinchalik qarg'a urug'i o'zbek xalq tarkibiga kirgan muhim etnik birliklardan biri sifatida shakllangan. Bugungi kundagi *Qarg'a*, *Qarg'alar* toponimlari O'zbekisonda keng tarqalgan etnotoponimlardan biri sanaladi. Masalan, Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-ibol" asarida o'qiymiz: "Yo'lda Gurlan Naymanning ayoqida Qarg'alar mahallasig'a yetkanda Muhammad inoq Jonmurod inoqdin iltimos qildi,..."

O'zbek tilida qarg'a tushunchasi bir necha so'z bilan ifodlangan. "Devonu lug'ot it-turk" asarida *chumuq* – bir xil qarg'a (o'g'uzcha, oyoqlari va qanotlari oq patli qarg'a); *chumchuq* – ola qarg'a; *chumg'uq* – bir xil qarg'a so'zlarini uchratamiz.

P.Armstrongning "Shekspir va qushlar" tadqiqoti Uilyam Shekspir asarlaridagi qushlarning roli va ramziyligi haqida bo'lib, unda Shekspir qushlardan nafaqat badiiy unsur sifatida, balki ilgari surilgan g'oyalar, qahramon xarakter-xususiyatlari va ijtimoiy muammolarni etkazish uchun muhim ramz sifatida qanday foydalangani borasida gap ketadi. Ushbu assotsiatsiyalar U.Shekspirga o'z pesalaridagi hissiy va tematik qatlamlarni boyitishga yordam beradi. Kitob U.Shekspirning qushlardan foydalanishini Elizaveta davrining madaniy va tarixiy kontekstiga joylashtiradi. Shekspir

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

davridagi qushlar haqidagi tushunchaga folklor va tabiat tarixining yangi sohasi qanday ta'sir qilganligi muhokama qilinadi. P.Armstrong bu ta'sirlar adabiyotda qushlarning tasvirini qanday shakllantirganini ko'rsatadi.

Muhimi, olim qushlar va inson munosabatlari masalasiga V.Shekspir asarlari misolida yondashadi. Kitob V.Shekspirning qushlar tasviri inson va tabiat munosabatlarini qanday aks ettirishini o'rganish orqali ekologik tanqidiy yondashuvni oladi. Armstrong, shuningdek, Shekspir asarlaridagi qushlar ko'pincha o'sha davrning ijtimoiy tuzilmalarini qanday aks ettirishi haqida gapiradi. Yirtqich qushlar, burgut yoki lochin kabi, ko'pincha olijanoblik va kuch bilan bog'liq bo'lsa, chumchuq yoki qorayaloq kabi kichikroq qushlar esa oddiy odamlarni yoki kamtarroq fazilatlarni ifodalaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Mallayev N.Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti.-Toshkent:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
2. Хартинг Дж.Э. Орнитология Шекспира /Пер. с англ. П. Тушаро. М.: Libra, 2019. 140 с
3. Harting D.E. The Ornithology of Shakespeare. London: van Voorst, 1871.
- 4.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Ikkinchi tom-Toshkent:1982. – Б.
- 5.– Б. 270.
- 6.Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'ati turk.Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutalliboy.Махмуд Кошғарий. Девону луғот ит турк. Таржимон ва нашрга -Bob. – Toshkent: Fan, 1960. – Б. 436.
7. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'ati turk.Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutalliboy.Махмуд Кошғарий. Девону луғот ит турк. Таржимон ва нашрга -Bob. – Toshkent: Fan, 1960. – Б.69.
8. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'ati turk.Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutalliboy.Махмуд Кошғарий. Девону луғот ит турк. Таржимон ва нашрга -Bob. – Toshkent: Fan,, 1960. – Б. 434.
- 9.Harper, D. (2023). Etymology of Nightingale. Online Etymology Dictionary. Retrieved from etymonline.com; Hoad, T. F. (1993). The Concise Oxford Dictionary of English Etymology. Oxford University Press